UO‘K 378.015.31:811.512.133

KOGNITIV LINGVISTIKANING KONSEPT NAZARIYASI ASOSIDAGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Sh.J. Saidxonova, Y.T. Umarova

Maqolada ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv bilimlari va faolligini shakllantirish hamda rivojlantirish tilshunoslik fanlari metodikasining kognitiv lingvistika bilan uzviy aloqadorlikda bo‘lishini taqozo etishi xususida mulohazalar yuritilgan. Tilshunoslik fanlariga oid mavzularni kognitiv konsept turlari asosida tashkil etish tilning nafaqat strukturasini, balki uning madaniyat, jamiyat va inson tafakkuri bilan bog‘liq jihatlarini ham chuqur o‘rganish imkonini beradi. Talabalarning bilim qobiliyatlarini takomillashtirishning zamonaviy usullari mavjud ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *kognitiv lingvistika, kognitiv qobiliyat, konsept, metod, “Aqliy tasvirlar”, konsept-sxema metodi, perseptiv tasvir, kognitiv tasvir.*

В статье формирование и развитие когнитивных знаний и когнитивной деятельности учащихся в образовательном процессе требует неразрывной связи методик лингвистических дисциплин с когнитивной лингвистикой. Организация лингвистических тем на основе типов когнитивных концептов позволяет углубленно изучать не только структуру языка, но и его аспекты, связанные с культурой, обществом и мышлением. На основе имеющихся данных анализируются современные методы повышения познавательных способностей учащихся.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, познавательная способность, концепт, метод, “Ментальные образы”, метод концепт-схем, перцептивный образ, когнитивный образ.*

Hozirda yuksak kommunikativ savodxonlik va ijtimoiy kompetentlikka ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash masalasi negizida til ta’limini sifat jihatdan yangi pog‘onaga ko‘tarish talabi bilan kommunikativ-kognitiv yondashuv asosida o‘qitishga ehtiyoj yuzaga keldi. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimi talabalarni har tomonlama hayotga tayyorlash maqsadini amalga oshirish uchun umuminsoniy va milliy qadriyatlar, xalqning intellektual boyliklari, zamonaviy fan va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat yutuqlariga tayangan holda amalga oshirar ekan, til ta’limining miqyosi yanada kengaydi.

O‘qitish amaliyotida talabalarning kognitiv faolligini shakllantirish zarurati pedagogikaga, xususan, tilshunoslik fanlari metodikasiga kognitiv lingvistikaning yutuqli jihatlarini olib kirishni taqozo etadi. Buning natijasida talabalarning fikrlovchi shaxs sifatidagi bilim olish qobiliyatini rivojlantirishga erishiladi. Demak, kognitiv lingvistika lingvodidaktik masalalarni hal qilishda amaliy yondashuv ekanligi tobora aniq bo‘lib bormoqda. Kognitiv tilshunoslikning fundamental tamoyillarini didaktik talqin qilishni tizimlashtirish pedagogik kognitiv fanni amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy soha sifatida shakllantirish imkonini beradi. Zero, ona tilini o‘qitishning bugungi zamon talabidagi maqsadi talabaning kognitiv faoliyatga tayangan mazmunli tajribani o‘zlashtirishiga erishishdir. Zero, o‘qitish metodikasi va texnologiyasini talabalarning kognitiv xususiyatlariga yaqinlashtirish, o‘quv jarayonini imkon darajasida individuallashtirishni ta’minlash, har bir talabaning shaxsini hurmat qilish asosida yondashish muhim ahamiyatga ega. Xususan, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Tilshunoslikka kirish”, “O‘zbek dialektologiyasi” kabi fanlarga oid mavzularni kognitiv konsept turlari asosida tashkil etish tilning nafaqat strukturasini, balki uning madaniyat, jamiyat va inson tafakkuri bilan bog‘liq jihatlarini ham chuqur o‘rganish imkonini beradi.

I. *“Aqliy tasvirlar” konsepti metodi.*

Odatda, aqliy tasvirlar individual, jamoaviy va umummilliy darajada bo‘lishi mumkin. Didaktik mavzularni o‘tishda “aqliy tasvirlar” usulidan foydalanish talabalarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi va milliy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi. Bunda asosiy e’tibor muayyan didaktik mavzular doirasida ozodalik, mehr-oqibat, mehmondo‘stlik, oila muqaddasligi, kattalarga hurmat kabi milliy qadriyatlar bilan bog‘liq so‘z va iboralarni tahlil qilish, bu til birliklarining jamiyatdagi ahamiyati, milliy ong va aqliy tasvirlardagi o‘rnini ochib berishga qaratiladi.

Maqsad: Talabalarda jamiyat va tilning o‘zaro bog‘liqligi haqida tushunchani shakllantirish, til taraqqiyoti jamiyatdagi o‘zgarishlarning ifodasi ekanligini chuqurroq anglatish.

Vazifalar:

- jamiyat va tilning o‘zaro munosabati haqida nazariy bilim berish;
- tilning jamiyatdagi rolini ochib berish;
- jamiyat taraqqiyotining tilga ta’sirini ko‘rsatish;
- “Aqliy tasvirlar” metodi yordamida mavzuni chuqurroq anglatishga erishish;
- talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Metodik asos:

“Aqliy tasvirlar” metodi talabalar ongida jamiyat va til taraqqiyoti bilan bog‘liq obrazli tasvirlar, assotsiatsiyalar va tasavvurlarni shakllantirishga asoslanadi. Bu usul orqali talabalar mavzuni nafaqat aqlan, balki hissiy jihatdan ham anglab yetadilar.

Dars jarayonida qo‘llaniladigan usullar:

1. “Aqliy hujum” (“Brainstorming”): Talabalarga “Jamiyat” va “Til” so‘zlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fikrlar, so‘zlar, obrazli tasvirlar va assotsiatsiyalarni aytish taklif qilinadi. Bu fikrlar doskaga yoziladi va muhokama qilinadi.

2. Assotsiativ qatorlar: Talabalarga “Jamiyat” va “Til” so‘zlari asosida assotsiativ qatorlar tuzish vazifasi beriladi. Masalan:

Jamiyat → odamlar → munosabatlar → madaniyat → qadriyatlar → taraqqiyot.

Til → so‘zlar → grammatika → nutq → muloqot → axborot→nutqiy ta’sir.

3. Obrazli taqqoslashlar: Talabalarga jamiyat va tilni ifodalovchi obrazli taqqoslashlarni topish vazifasi beriladi. Masalan:

Jamiyat – organizm, til – uning asab tizimi.

Jamiyat – daraxt, til – uning ildizlari.

4. Tarixiy misollar: Talabalarga jamiyatdagi o‘zgarishlar tilda qanday aks etganiga oid misollar keltirish taklif qilinadi. Masalan, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, eski so‘zlarning iste’moldan chiqishi yoki ma’no o‘zgarishi, asrlar davomida o‘zbek tiliga arab va fors madaniyatining ta’siri, sobiq ittifoq davrida rus tilining ta’siri, hozirgi globallashuv davrida ingliz tilining ta’siri va bu jarayonlarda ona tili sofligini saqlash muammosi xususida fikrlar o‘rtaga tashlanadi.

Muhokama uchun Ashurali Zohiriyning 1914-yili “Sadoi Farg‘ona” gazetasida bosilgan “Ona tili” nomli maqolasidan hamda M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlarning 1992-yilda nashr etilgan “Til va madaniyat” kitobidan misollar keltirib, davr ruhining tilda aks etishi masalasi xususida bahs yuritilsa, talabalarning ushbu muammoning mohiyatini chuqurroq anglab yetishlariga erishiladi.

Ashurali Zohiriyning “Ona tili” maqolasidan:

“Bizning ham xoh ulamo va mudarrislarimiz, xoh yosh unsurlarimiz bo‘lsunlar, bu muqaddas ona tilimizni tiriltirmoqlari anda tursin, balki yo‘qotmoqlikka sabab bo‘lurlar va ham bo‘lib turibdurlar. Na uchunki, ulamolarimizdan biri biror yerga xat yoki birovga bergan narsasini xotira daftariga yozsa, ona tilini qo‘yib, fors tilida yozadurlar. Yosh o‘smirlarimiz bo‘lsalar o‘z yerliklaridan birini ziyofatga choqurib xat yozsalar ham, usmonlicha, yoki totorcha yozadurlar; shoyadki, ona tilga muhabbat va islohi onlardin bo‘lur erdi. Agar ulamolar, mudarrislar Eron adabiyoti, tili ta’sirinda voyaga yetgan bo‘lsalar, yosh o‘smirlarimiz bo‘lsalar totor va usmonli turk adabiyoti vositasi ila fikrlarini ochgon. Durust, forsiycha, arabcha, o‘ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik, lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortuq va ziyodaroq bilaylik. Sarf va nahvlari bilan bilaylik va ham shundog‘ bo‘lg‘onda arabcha, forscha va boshqalarig‘a tushunurmiz. Chunki o‘z tilimizni yaxshilab bilmadikmi, boshqa tilni albatda durust bilmaymiz va buni hijriy 900-yilda undan ilgariroq ham Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiydek zotlar vujudg‘a kelib qirqg‘a yaqin asarlari bilan ona tilimizning boshqa tillarg‘a nazaran (qaraganda) boy ekanligini, she’rda berilg‘on jozibasini, musiqa (muzika)da bo‘lg‘on latofatini, “Me’zon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn”lari bilan bildurg‘on erdilar” [1].

Ushbu matn orqali ona tilining betakror madaniy meros ekanligini tushunib yetish, uni asrab-avaylab keyingi avlodlarga yetkazish, boshqa tillarning ta’siriga tushib qolishidan ehtiyot qilish zarurati doimo mavjudligi anglashiladi. Zero, jadidlar o‘z davrining ilg‘or ziyolilari sifatida milliy muammolarni dadil ko‘tarib chiqqanlar. Xususan, ona tilining sofligini saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi ular faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Mazkur maqolada mavlono Lutfiy va hazrat Alisher Navoiy davrlarida ham bu muammo dolzarb bo‘lganligi, tilimizning naqadar boy ekanligini isbotlash maqsadida bu ikki buyuk so‘z san’atkori o‘zlarining turkiy tildagi ijodlari bilan “labbay” deb javob berganliklari eslatib o‘tiladi.

M.Mirtojiyev va N.Mahmudovning “Til va madaniyat” kitobidan:

“Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, shaharning hammaning ongiga tamg‘a kabi o‘rnashib qolgan maydonlari nomini o‘zgartirishga bo‘lgan harakat hamma vaqt zoye ketar ekan. Masalan, Beshyog‘och maydoni nomi Komsomol maydoni deb, keyin esa Beruniy maydoni deb o‘zgartirib ko‘rildi. Bir qancha vaqtgacha bu nomlar tramvay, trolleybus, avtobus peshonasiga ham yozib qo‘yildi. Biroq hech kim bu nomlar bilan shu maydonni tanimadi. Taniganlar bo‘lsa ham, uni yangi nomida atamadi. Chunki Beshyog‘och maydoni shu nom bilan kishilarning qon-qoniga singib ketgan edi. Vaholanki,

o‘sha davr siyosatiga ko‘ra, “komsomol” so‘zi juda katta ixlos qozonganligi ma’lum. Beruniy nomi berilganda o‘zbek xalqi o‘z tabarruk va buyuk olimini juda yaxshi tanirdi. Lekin bular xalq ongiga singigan nomni o‘zgartirish uchun rol o‘ynamasligini ko‘rdik. Chorsu maydoni nomini ham Oxunboboyev nomi bilan almashtirilmoqchi bo‘ldi. U yerga Oxunboboyevning ulug‘vor haykali ham o‘rnatildi. Biroq u yerda haykal savlat to‘kib turaverdi-ku, maydonning nomini kishilar aslicha atayverdi. Keyin haykal olinib, o‘rniga muhtasham mehmonxona tushdi. Transportlar peshonasiga mehmonxonaning sobiq Moskva nomi yozib qo‘yilgan bo‘lsa ham, hammaning tilida bu joy o‘zgarishsiz o‘z nomi bilan qoldi” [2].

Matnda ayrim milliy-madaniy nomlar til tashuvchilari ongida tarixiy davrlar mobaynida saqlanib qolganligi bois mafkuraviy tazyiqlardan o‘tib bugungi davrgacha yetib kelganligi bayon qilingan. Masalan, Beshog‘och → Beshyog‘och → Komsomol → Beruniy → Beshyog‘och; Chorsu → Oxunboboyev → Moskva → Chorsu tarzida yana o‘z nomiga qaytganligi misolida til o‘z qonuniyatlari asosida rivojlanishi ochiqlangan. Mazkur parcha olingan “Til va madaniyat” ilmiy-ommabop risolasi mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq yozilgan bo‘lib, unda tilning sofligi, ijtimoiy muhitning tilga ta’siri muammolari batafsil yoritilgan. O‘qituvchi tomonidan talabalarga bunday manbalar bilan mustaqil tanishib borish tavsiya etiladi.

5. Zamonaviy tendensiyalar: Talabalarga zamonaviy jamiyatdagi globallashuv, informatsion texnologiyalarning rivojlanishi va boshqa tendensiyalarning tilga ta’sirini tahlil qilish vazifasi beriladi. Radio-televideniye, ayniqsa, internet muloqoti, ularning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi.

1) “Telegram” kanalidan olingan zamonaviy maqollarning pragmatik talqini muhokama qilinadi. Ushbu zamonaviy maqollar an’anaviy maqollar qolipida xalqona ijodkorlik bilan shakllantirilgan bo‘lib, bugungi jamiyatning qadriyatlari, iqtisodiy munosabatlari va turmush tarzini kinoyali tarzda aks ettiradi.

“*Kredit ko‘zini suzmasa, protsent arqon uzmaydi*”. Bu maqol kredit olishning xatarli ekanligini, qarzning doimiy o‘sib borishini ta’kidlaydi. Bu yerda kredit-foiz munosabatlari “ko‘z suzish” (oson yo‘l bilan egallash) va “arqon uzish” (boshqarish imkonsizligi) kabi metaforik obrazlar orqali tasvirlanadi.

“*Bo‘ladigan bola pulidan ma’lum*”. Bu maqol zamonaviy pragmatik dunyoqarashni ifodalab, muvaffaqiyatga erishishning moddiy belgilariga e’tibor qaratiladi. Bu yerda metonimiya qo‘llanilib, bolaning kelajagi uning puli (moddiy ta’minoti) bilan bog‘lanadi.

“*Qarzi borning nozi bor*”. Bu maqol ayrim qarzdorlarning mas’uliyatsizligi, o‘z burchini bajarishga yengil qarashini kinoya usulida ifodalaydi.

“*Oz-oz so‘rab puldor bo‘lur, Orlanib so‘ramagan xor bo‘lur*”. Bu maqol zamonaviy iqtisodiy munosabatlardagi “ishbilarmonlik”, tovlamachilik va uyalmaslik odatlarini qoralashga qaratilgan.

“*Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dollarda*”. Bu maqol zamonaviy jamiyatda moddiy qadriyatlarning ustunligini, oilaviy munosabatlarning o‘zgarayotganini ifodalaydi. Bu yerda antiteza qo‘llanilib, onaning mehri va bolaning moddiy manfaati qarama-qarshi qo‘yiladi.

“*Qarz so‘raganning aybi yo‘q*”. Bu maqol qarz olishning uyat emasligini, zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda me’yordagi holat ekanligini ifodalaydi.

“*Puldor achitib gapirar, qarzdor kuldirib*”. Bu maqol boylarning manmanligi va qarzdorlarning muloyim bo‘lishga majburligini ta’kidlaydi.

“*Uzoqdagi dollardan, yaqindagi so‘m yaxshi*”. Bu maqol hozirgi vaziyatdan kelib chiqib foydalanishni, reallikni qadrlashni ifodalaydi.

“*Qarz ko‘zini suzmasa, dollar ipini uzmaydi*”. Bu maqol kredit olishning murakkabligi dollar miqdoriga teng qiymatda to‘lashga olib kelishini ta’kidlaydi.

“*Ko‘p qarz eshakka yuk*”. Bu maqolda qarzning og‘ir yuk ekanligi, insonni ruhan ezishi ta’kidlanadi.

“*So‘m vafo, dollar jafo*”. Bu maqol so‘mning milliy qadriyat ekanligi, vafodorligi, dollarning esa o‘zgaruvchanligiga ishora qiladi.

2) Otaning qiziga zamonaviy nasihati:

Endi ona qizim, har bir qiz o‘z uyiga “Gosti”. Shunday ekan, senga aytar Statusim: Kuyovnikiga borganda “Zakrit Profil” bo‘lgin. Eringdan boshqasi senga “Drujba” tashlasa, “Ignor” qilgin. Eringning kamchiliklarini hamisha “Nevidim” qilgin. Qaynota-qaynonangning har bir gapiga “Klass” deb turgin. Uydagi “Soobsheniya” va “Obsujdeniya”larni bizga va ko‘chadagilarga aslo “Kopiravat” qila ko‘rmagin. Qo‘shnilaringga “Druzya” bo‘l! Qaynopalaring bilan esa “Luchshiye Druzya” bo‘lgin. Har bir qiliqlariga “Layk” deb turgin. Ularning “Chyorniy spiska”siga aslo tusha ko‘rmagin! (“Telegram”dan)

Bu matnda zamonaviy texnologiyalar tilida varvarizmlardan foydalanilgan holda hajviy usulda an’anaviy oilaviy qadriyatlar targ‘ib qilingan.

“Gosti” (mehmon): Qizning turmushga chiqishi, ota uyidan ketishi va endi bu xonadonga mehmon ekanligi haqidagi an’anaviy tushuncha.

“Zakrit profil” (profilni yopish): turmush o‘rtog‘idan boshqa erkaklar bilan munosabat qilmaslik, sadoqatli bo‘lish haqidagi nasihat.

“Drujba tashlasa, ignor qilgin” (do‘stlik taklifini rad et): nomahram erkaklar bilan do‘stlashmaslik, ulardan o‘zini olib qochish haqidagi nasihat.

“Kamchiliklarini hamisha nevidim qilgin” (kamchiliklarini ko‘rmaslik): erning kamchiliklariga ko‘z yumish, ularni to‘g‘ri qabul qilish haqidagi nasihat.

“Klass deb turgin” (ma’qullash): qaynota-qaynonaning gaplarini doim ma’qullash, ularga itoat qilish haqidagi nasihat.

“Soobsheniya va obsujdeniyalarni kopiravat qila ko‘rmagin” (xabarlarni ko‘chirmaslik): oila sirlarini saqlash, ularni boshqalarga oshkor qilmaslik haqidagi nasihat.

“Druzya bo‘l” (do‘st bo‘l): qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, ular bilan do‘stona aloqada bo‘lish haqidagi nasihat.

“Luchshiye druzya bo‘lgin” (eng yaqin do‘st bo‘l): Qaynopalar bilan yaqin munosabatda bo‘lish, ular bilan sirdosh bo‘lish haqidagi nasihat.

“Layk deb turgin” (ma’qulla): qaynopalarning har bir ishini ma’qullash, ularni qo‘llab-quvvatlash haqidagi nasihatni ifodalaydi.

“Chyorniy spisokka aslo tusha ko‘rmagin!” (qora ro‘yxatga tushma): qaynopalarning g‘azabini keltirmaslik, ularning noroziligiga sabab bo‘lmaslik haqidagi nasihat.

5. Rasmlar va illyustratsiyalar: Jamiyat va til taraqqiyotini aks ettiruvchi rasmlar va illyustratsiyalar, audiovizual materiallar namoyish etiladi va ular muhokama qilinadi.

6. Amaliy topshiriqlar:

1) jamiyatdagi o‘zgarishlarning tilga qanday ta’sir etganini misollar bilan isbotlang:

Fan va texnikaning rivojlanishi.

Globallashuv.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar.

2) quyidagi iboralarni sharhlang va ularning ma’nolarini tushuntiring:

“Til – millatning ruhi”.

“Til – jamiyatning ko‘zgusi”.

“Til – axborotning asosiy vositasi”.

3) “Tilning taraqqiyoti – jamiyatning taraqqiyoti” mavzusida esse yozish mustaqil ish sifatida topshiriladi.

Yakuniy xulosa. Darsning so‘ngida talabalar quyidagi xulosalarga kelishlari kerak:

Jamiyat va til o‘zaro chambarchas bog‘liq.

Til jamiyatdagi o‘zgarishlarning aksidir.

Jamiyat taraqqiyoti tilning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Til jamiyatda muhim rol o‘ynaydi, u muloqot vositasi, madaniyat tashuvchisi va ijtimoiy birlashtiruvchi kuchdir.

Tilni asrab-avaylash va rivojlantirish jamiyatning ravnaqi uchun muhim ahamiyatga ega.

“Aqliy tasvirlar” usuli orqali “Jamiyat va til taraqqiyoti” mavzusini o‘qitish talabalarning jamiyat va til haqidagi bilimlarini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashlarini rivojlantiradi va tilga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantiradi.

II. *Konsept-sxema (perseptiv va kognitiv tasvir) metodi.*

Masalan, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” va u bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi leksikani o‘rganish orqali muayyan ijtimoiy kompetensiyaning lingvomadaniy uzvlarini tizimlashtirish maqsad qilib olinadi. Mehmondo‘stlikning maishiy (oila, do‘stlar, qarindosh-urug‘lar o‘rtasida) va ijtimoiy (korxona va tashkilotlararo, ijtimoiy guruhlararo, millatlararo, davlatlararo kabi) turlari haqida tasavvur hosil qilinadi.

Mehmondo‘stlik o‘zbek xalqining azaldan shakllangan va asrlar davomida sayqallanib kelgan eng muhim milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu qadriyat o‘zbek jamiyatining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi va xalqimizning o‘ziga xos qiyofasini belgilab beradi. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatning o‘zbek tilidagi ifodasini o‘rganish til va madaniyatning o‘zaro aloqasini chuqur anglashga yordam beradi. Konsept-giperonimlar tahlili usuli esa bu qadriyatni umumiy, neytral tavsiflar orqali ochib berish imkonini yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilida mehmondo‘stlik va u bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi leksikani tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega.

“Mehmondo‘stlik” konseptosferasi – bu mehmondo‘stlik konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tushunchalar, obrazlar, qadriyatlar, munosabatlar va bilimlar majmuidir. Bu konseptosfera mehmondo‘stlikning turli qirralarini ochib beradigan leksik, frazeologik va madaniy elementlarni o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulot davomida leksik-semantik, konseptual, lingvomadaniy, diskursiv tahlil usullaridan foydalangan holda o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik” konseptini ifodalovchi leksik birliklarning semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari aniqlanadi.

Dars jarayoni quyidagi reja asosida olib boriladi.

O‘zbek tilida mehmondo‘stlikni ifodalovchi leksik birliklarni aniqlash va tasniflash (asosiy so‘zlar, sinonimlar, antonimlar, frazeologizmlar, maqollar va iboralar).

Aniqlangan leksik birliklarning lug‘aviy va konnotativ ma’nolarini tahlil qilish.

Mehmondo‘stlik konsepti bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlar (urf-odatlar, an’analar, e’tiqodlar) ni o‘rganish.

Adabiy matnlar, folklor namunalari va og‘zaki

nutqda mehmondo‘stlikni ifodalovchi leksikaning qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlash.

Dars natijalari asosida “mehmondo‘stlik” konseptining o‘zbek tilidagi leksik ifodasiga oid xulosalar chiqarish.

Tahlil uchun til materialini to‘plash maqsadida oldindan talabalarga quyidagi manbalar bilan ishlash tavsiya etiladi:

O‘zbek tilining izohli lug‘ati, sinonimlar va frazeologizmlar lug‘atlari.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari (maqollar, iboralar, ertaklar, dostonlar).

O‘zbek adabiyotining mumtoz va zamonaviy asarlari.

Ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, televideniye, radio, internet) materiallari.

Mavzuga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.

So‘rovnomalar va intervyular (til egalarining mehmondo‘stlik haqidagi tasavvurlarini aniqlash).

1. *Asosiy tushunchalar:*

- “mehmon” – o‘z uyidan boshqa joyga vaqtincha kelgan shaxs;
- “mezbon” – mehmonni kutib oluvchi va unga xizmat qiluvchi shaxs;
- “mehmonxona” – mehmonlar uchun mo‘ljallangan joy (xona, uy, mehmonxona kompleksi);
- “ziyofat” – mehmonlar uchun tashkil etilgan tantanali ovqatlanish marosimi;
- “xizmat” – mehmonga ko‘rsatiladigan ehtirom va g‘amxo‘rlik.

2. *Qadriyatlar va munosabatlar*:

- hurmat: mehmonga nisbatan izzat-ikrom ko‘rsatish;
- ehtirom: mehmonning qadrini bilish va uni ulug‘lash;
- saxovat: mehmonga nisbatan ochiqqo‘llik va marhamatlilik;
- ochiqlik: mehmonga nisbatan samimiylik va do‘stona munosabat.
- g‘amxo‘rlik: mehmonning ehtiyojlarini qondirish va unga qulay sharoit yaratish;
- do‘stlik: mehmon bilan iliq va samimiy munosabat o‘rnatish;
- ishonch: mehmonga nisbatan gumon qilmaslik va unga ishonish;
- minnatdorchilik: mezbonning mehmondo‘stligi uchun rahmat aytish.

3. *Fe’llar (harakatlar)*:

- kutib olish: mehmonni qarshilash va unga “Xush kelibsiz!” deyish;
- siylash: mehmonga taom va ichimliklar tortiq qilish;
- xizmat qilish: mehmonning ehtiyojlarini qondirish va unga qulaylik yaratish;
- mehmon qilish: mehmonni o‘z uyida vaqtincha yashashga taklif qilish;
- hurmat ko‘rsatish: mehmonga izzat-ikrom ko‘rsatish;
- kuzatish: mehmonni kuzatib qo‘yish va unga xayrli safar tilash.

4. *Sifatlar (belgilar)*:

- mehmondo‘st: mehmonlarni yaxshi kutib oluvchi va ularga xizmat qiluvchi;
- saxiy: mehmonga nisbatan ochiqqo‘l va marhamatli;
- xushmuomala: mehmon bilan xushfe’l va go‘zal munosabatda bo‘luvchi;
- ochiq yuzli: mehmonni quvonch bilan qarshi oluvchi;
- g‘amxo‘r: mehmonning ehtiyojlariga e’tiborli bo‘luvchi.

5. *Madaniy elementlar*:

- choyxona: mehmonlar bilan suhbatlashish va dam olish uchun mo‘ljallangan joy;
- dasturxon: mehmonlar uchun tayyorlangan turli xil taomlar va shirinliklar;
- palov: o‘zbek milliy taomi, mehmonlarga tortiq qilinadigan asosiy taomlardan biri;
- choy: o‘zbek mehmondo‘stligining ramzi, mehmonga birinchi navbatda choy taklif qilinadi.

6. *Maqollar va iboralar*:

“Mehmon kelsa eshikdan – rizqi kelar teshikdan”.

“O‘zi kelgan mehmon – atoyi Xudo”.

“Mehmon – aziz”.

“Mehmon – otangdan ulug‘”.

“Osh yeganga – rahmat, non yeganga – ming rahmat”.

“Uyiga mehmon kelmaydiganning barakasi bo‘lmaydi”.

Ushbu tushunchalar mehmondo‘stlik konseptosferasining asosiy elementlarini tashkil qiladi va o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik qadriyatiga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ularni o‘rganish o‘zbek tili va madaniyatini chuqur anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. *Зоҳирий А*. Газета она тилиға хизмат этсун – Юз йиллик оғриқ // “Садои Фарғона” газетаси. 1914 йил 13 апрель (Муслимбек Алижонов нашрга тайёрлаган) [Интернет манба]. URL: https://oyina.uz/kiril/article/3125 (Murojaat etilgan sana: 21.06.23)

2. *Миртожиев М., Маҳмудов Н*. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.

3. *Сафаров Ш*. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.

4. *Eshonqulov Sh.U., Lapasov D.T.* Freymli o'qitish modelining mazmun jihati, freymli texnologiyaning vaqtga bog'liq jihati // "Yangi O'zbekiston: ilm qaldirg'ochlari – 2023" II respublika ko'rik tanlovi hamda talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Jizzax, 2023-yil 20-may. – B. 100-102.

5. *Маслова В.А.* Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта, 2018. – 296 с.

6. *Умарова Я*. Тил материалини ўрганиш жараёнида ижтимоий компетенцияни шакллантириб бориш // American Journal of multidisciplinary Bulletin. 2024. – Vol. 2. – Issue 4. – P. 35–40.

7. *Abduolimova M.* Kognitiv metafora nazariyasi: yangi yo'nalishlar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol 2. – Issue 3. – Pp. 153–161.

8. *Umarova Y.* Theoretical Issues of Developing and Improving Professional Competence of Philology Students // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). 2024. . – № 11. – Pp. 334–339.

9. Otaxonova X. Kognitiv semantika lingvistik va kognitiv tadqiqotlar taraqqiyoti kontekstida. // Philology Matters, 2024. – № 7. – Б. 117 –134.

10. Umarova Y., Ne'matova D. Umumta'lim maktablaridagi o'quvchilar til kompetentligining joriy holati tahlili // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar. – 2020. – № 6 (50). – Pp. 47–57.

METHODS OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES BASED ON THE CONCEPT THEORY OF COGNITIVE LINGUISTICS

Shohida J. Saidkhonova[1], Yayrakhon T. Umarova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2024. 6(82). 20-26.

[1]Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, 170100, str. Do'stlik, 4 (Uzbekistan). E-mail: andupi@edu.uz

Key words: cognitive linguistics, cognitive ability, concept, method, 'Mental images', concept-schema method, perceptual image, cognitive image.

This article discusses the need for the methodology of linguistics to be closely linked with cognitive linguistics to form and develop students' cognitive knowledge and activity in the educational process. Organizing linguistics topics on the basis of cognitive concept types allows for a deep study not only of the structure of language, but also of its aspects related to culture, society, and human thinking. Modern methods of improving students' cognitive abilities are analyzed based on available data.

In accordance with the needs of the time, the need to raise language education to a qualitatively new level, based on the issue of educating young people with high communicative literacy and social competence, has arisen to teach on the basis of a communicative-cognitive approach. At the same time, the higher education system, in order to achieve the goal of comprehensively preparing students for life, is implementing it based on universal and national values, the intellectual wealth of the people, modern science and technology, the achievements of the economy and culture, and the scope of language education has expanded further.

The need to form students' cognitive activity in teaching practice requires the introduction of the achievements of cognitive linguistics into pedagogy, in particular, into the methodology of linguistics. As a result, the development of students' ability to acquire knowledge as thinking individuals is achieved. Thus, it is becoming increasingly clear that cognitive linguistics is a practical approach to solving linguodidactic issues. Systematization of the didactic interpretation of the fundamental principles of cognitive linguistics allows the formation of pedagogical cognitive science as a scientific field of practical importance. After all, the goal of teaching the native language in today's demands is to achieve the student's assimilation of meaningful experience based on cognitive activity. Thus, it is emphasized that one of the effective methods of transforming the student's assimilation of cognitive activity processes into a didactic goal as an important factor in the development of his social activity is to be considered. After all, it is important to bring teaching methods and technologies closer to the cognitive characteristics of students, ensure the individual-

ization of the learning process as much as possible, and approach them based on respect for the personality of each student. In particular, organizing topics related to such disciplines as “Modern Uzbek literary language”, “Introduction to linguistics”, “Uzbek dialectology” on the basis of cognitive concept types allows for a deep study not only of the structure of the language, but also of its aspects related to culture, society and human thinking.

The method of the concept of “mental images”

Usually, mental images can be individual, collective and national. The use of the “mental images” method in the passage of didactic topics serves to provide students with a deeper understanding of the topic and teaches them to appreciate national values. In this case, within the framework of specific didactic topics, the analysis of words and phrases related to national values such as cleanliness, kindness, hospitality, the sanctity of the family, respect for elders is aimed at revealing the importance of these language units in society, their place in the national consciousness and mental images. For example, in the passage of the topic “Society and Language Development” within the subject “Introduction to Linguistics”, a methodological interpretation method based on the theoretical concepts of cognitive linguistics on the concept type “Mental Images” can be formulated as follows.

References:

1. Zohiriy, A. (2014). Gazeta ona tiliga xizmat etsin – Yuz yillik og‘riq [Let the newspaper serve the native language – A Hundred Years of Pain]. *Newspaper ‘Sadoi Farg‘ona’*. April 13. [Online]. URL: https://oyina.uz/kiril/article/3125 (Date of Access: 21.06.24)

2. Mirtojiyev, M., Mahmudov, N. (1992). *Til va madaniyat* [Language and Culture]. Tashkent: O‘zbekiston. 1992.

3. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik* [Cognitive Linguistics]. Jizzax: Sangzor.

4. Eshonqulov, Sh.U., Lapasov D.T. (2023). Freymli o‘qitish modelining mazmun jihati, freymli texnologiyaning vaqtga bog‘liq jihati [The content aspect of the framed teaching model, the time-dependent aspect of framed technology]. In: *“Yangi O‘zbekiston: ilm qaldirg‘ochlari – 2023” II respublika ko‘rik tanlovi hamda talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari* [Materials of the II Republican competition “New Uzbekistan: swallows of science - 2023” and the scientific and practical conference of students]. Jizzax. Pp. 100-101.

5. Maslova, V.A. (2018) *Vvedenie v kognitivnuyu lingvistiku* [Introduction to Cognitive Linguistics]. Moscow: Flinta.

6. Umarova, Y. (2024). Til materialini o‘rganish jarayonida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirib borish [Forming social competence in the process of studying language material]. *American Journal of multidisciplinary Bulletin*. Vol. 2. Issue 4. Pp. 35–40.

7. Abduolimova, M. (2022) Kognitiv metafora nazariyasi: yangi yo‘nalishlar [Cognitive metaphor theory: new directions]. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Vol 2. Issue 3. Pp. 153-161.

8. Umarova, Y. (2024) Theoretical Issues of Developing and Improving Professional Competence of Philology Students. *European Journal of Innovation in Nonformal Education* (EJINE). No 11. Pp. 334-339.

9. Otaxonova, X. (2024) Kognitiv semantika lingvistik va kognitiv tadqiqotlar taraqqiyoti kontekstida [Cognitive semantics in the context of the development of linguistic and cognitive research]. *Philology Matters*. – No 7. Pp. 117-134.

10. Umarova Y., Ne’matova D. (2020) Umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilar til kompetentligining joriy holati tahlili [Analysis of the current state of language competence of secondary school students]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar*. No 6 (50). Pp. 47-57.

Muallif haqida ma’lumot:

SAIDXONOVA Shohidaxon Jaloliddinovna– pedagogika fanlari doktori, Andijon davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori.

UMAROVA Yayraxon To‘xtanazarovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti. E-mail: umarovayayrahon@gmail.com.

UO‘K: 371.3

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA PARAMETR QATNASHGAN TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNI O‘RGANISH

A.Axlimirzayev

Maqola parametr qatnashgan trigonometrik tenglamalarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda o‘quvchilarni $\sin x = a, |a| \le 1$, $\cos x = a, |a| \le 1$, $tgx = a$ *va* $ctgx = a$ *ko‘rinishidagi oddiy trigonometrik tenglamalarni turli a qiymatlarida yecha olishga o‘rgatish masalasi ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilar parametrli tenglamalarni yechishda trigonometrik formulalar va ayniyatlardan foydalanib, teng kuchlilik shartlarini bajarishi hamda yechimlarni tekshirishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *tenglama, parametr, parametr qatnashgan trigonometrik tenglama, tenglamaning yechimi, trigonometrik ayniyat, tengsizlik, parametrning mumkin bo‘lgan qiymatlari.*

Статья посвящена изучению тригонометрических уравнений с параметром. Подчёркивается, что ученики должны уметь решать простейшие тригонометрические уравнения, такие как $\sin x = a, |a| \le 1$, $\cos x = a, |a| \le 1$, $tgx = a$ *и* $ctgx = a$, *при различных значениях параметра a. Также в статье отмечается важность использования тригонометрических формул и тождеств для решения уравнений с параметром, при этом следует проверять выполнение условий равносильности и правильность полученных решений*.

Ключевые слова: *уравнение, параметр, тригонометрические уравнение с параметрами, решение уравнений, тригонометрическое тождество, неравенство, допустимое значение параметра.*

Ma’lumki, maktab matematika kursidagi bir qator mavzularni o‘zlashtirishda o‘quvchilar qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularga misol sifatida modulli tenglama va tengsizliklar hamda parametr qatnashgan tenglama va tengsizliklarni keltirish mumkin. Bunday mavzular maktab darsliklarida alohida berilmagan. Lekin har qanday tenglama va tengsizliklarni o‘rganish modul va parametr qatnashgan tenglama hamda tengsizliklarni o‘rganish bilan yakunlanadi.

Tenglamalar ichida parametr qatnashgan trigonometrik tenglamalar ham o‘quvchilar qiyin o‘zlashtiradigan mavzular sarasiga kirishini yuqorida ta’kidladik. O‘quvchilar bunday tenglamalarni yechishni puxta o‘zlashtirishlari uchun eng avvalo parametr qatnashmagan trigonometrik tenglamalarni yechishni puxta o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun esa ular $\sin x = a, |a| \le 1$, $\cos x = a, |a| \le 1$, $tgx = a$ va $ctgx = a$ ko‘rinishidagi eng sodda trigonometrik tenglamalarni a ning ko‘p uchrab turadigan turli tayin qiymatlaridagi yechimlarini yoza bilishlari kerak. Ularni quyida berilgan jadvaldan hosil qilish mumkin.

	$\sin x = a$	$\cos x = a$
$\|a\|<1$	$x = (-1)^k arcsin a + k\pi,\ k \in Z$	$x = \pm arccos a + 2\pi k,\ k \in Z$
$a > 1$	$x = \emptyset$	$x = \emptyset$
$a < -1$	$x = \emptyset$	$x = \emptyset$
$a = 1$	$x = \frac{\pi}{2} + 2\pi k,\ k \in Z$	$x = 2\pi k,\ k \in Z$
$a = -1$	$x = -\frac{\pi}{2} + 2\pi k,\ k \in Z$	$x = \pi + 2\pi k,\ k \in Z$
$a \in R$	$tgx = a\ x = arctga + \pi k,\ k \in Z$	
$a \in R$	$ctgx = a\ x = arcctga + \pi k,\ k \in Z$	